

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorij tilini innovatsion usullar orqali
o'rgatish**

Ilmiy rahbar N.N.Zubaydova

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

Ingliz tili 2 fakulteti

Sultonmurodova Z.M

Tel. +998 91 519 40 45

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida interfaol va qiziqtiruvchi o'yinlardan foydalanishning afzallikkлari haqida gapiradi. Bu o'qituvchilarning ishini qanchalik tezva samarali o'zlashtirishga yordam beradi l. Shuningdek, ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy metod va uslublardan foydalanish pedagogning vazifasidir.

Kalit so'zlar: Xorij tili, zamonaviy texnologik metodlar, catch the fish o'yini, ko'rish va eshitish orqali, krossvordli o'yinlar.

Hozirgi rivojlanayotgan va dunyo tan olgan mamlakatlar safiga qo'shilish uchun intilayotgan va bu yo'lда asosiy e'tiborni yoshlarga qaratayotgan davlatimiz bu yo'lда har bir yoshlar va bo'lajak kadrlar xorij tillarini bilishi muhim deb hisoblanmoqda. Ayniqsa bu borada eng yuksak e'tibor boshlang'ich ta'limga qaratilmoqda shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ 1875-sonli Qaroridir.[1.1] Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab chet tili darslarini turli va qiziqarli tarzda o'qitish va shu bilan bir qatorda ularda og'zaki nutqni ham rivojlantirish ko'zda tutilgan.2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. O'qituvchining ishi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko'pincha materialni to'liq o'rganish uchun sharoit yaratishga to'g'ri keladi[2.1]. Har bir o'qituvchi o'z ta'lim uslubiga tayanadi, lekin mактабгача va бoshlang'ich sinflarni o'qitish uchun har bir kishi rasmlar bilan ishlashni tanlaydi. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.[2.2]

Shuningdek, bolalarga ularning yosh kategoriyasiga qarab metod tanlash ularda chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Misol uchun, 7-9 yosh oralig'idagi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan asosan, ko'rish va eshitish orqali til o'rganish ular uchun samaraliroq, ular bilan televizordan turli chet tilidagi multfilmlar ko'rish,yosh bolalar ijrosidagi chet tilidagi qo'shiqlarini eshitish ularda tilga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va ko'rish orqali eslab qolish . Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan , darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish . Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard) , ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi .ularni kichik yoshdan boshlab ilm olishda raqobafbardorlik ruhida tarbiyalash, ya'ni, kim shu tilni yaxshiroq ya'ni esda saqlab qolsa, uni rag'batlantirish yanada uyg'otadi.Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlaraytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

Yosh bolalarga, ya'ni, 7-10 yosh oralig'idagi bolalarga asosan yuqorida aytilganidek, ko'rish va eshitish orqali chet tilini o'rgatish osonroq va ular uchun

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

samaraliroq, chunki ular qiyin grammatik qoidalar va yozib ishlash uchun biroz oz yoshlik qiladilar. Sezgi a'zolar orqali o'rganish (sabzavot, mevalar, oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish). Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'mashib qolishini xohlovchi pedagok bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashdirishga harakat qilishi kerak".

Masalan, ular bilan Catch the fish o'yini o'ynash ham qiziqarli ham samarali usul hisoblanadi. Bu

o'yindan ko'zlangan maqsad bolalarda yodda saqlab qolish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu o'yinda

biror bir yelim idishga maydaroq qog'oz donalariga o'zlari o'rgangan ranglar hayvon nomlari, gullar va shunga o'xshash narsalar yoziladi va baliq tutadigan qarmoqcha kerak bo'ladi va har bir

qarmoqchaga shunday qog'ozlar yelimlangan bo'ladi bolalar kelib baliqchalarni tutib savollarga

javob beradilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin .

REFERENCES

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. Turdaliyeva G.N “Boshlang’ich sinflarda ingliz tilini o’qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar”// 2020 .
3. Bekmuratova U.B . “ Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” // Toshkent 2012.
4. Erkinov. S. E boshlang’ich sinflarda chet tilini o’qitish metodikasi(2019).
- 5.Zhalolov, J.J. Chettil o’qitish metodologiyasi. Chet tillar oliv ukuv yurtlari talabalari uchun darslik. –Toshkent: Okituvchi, 1996. – 368 b.
6. Koshimov, U; Yokubov, I. Inglis tili o’kitish usullari. – T.: Shark nashriyot-matbaa aktsiadorlik kompaniyasi Bosh taxiriyat, 2003. – 56 b
7. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases 2019.